



INTERNET TIJORATDA RISK MENEJMENTI TIZIMI VA UNI RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI

Ubaydullaeva Dilrabo Boboraxmatovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti doktoranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10434173>

ARTICLE INFO

Received: 18th December 2023

Accepted: 26th December 2023

Online: 27th December 2023

KEY WORDS

Risk, risk menejmenti, kiber hujum, fishing, virus dasturlar, botlar, risklar reestri.

ABSTRACT

Axborot texnologiyalaridagi kashfiyotlar ham ijtimoiy hayotda, ham iqtisodiyotda inqilobiy o'zgarishlarga olib keldi. Tijoratdagi bunday o'zgarishlar foydalanuvchilarning xarid qilish odatlariga va kompaniyalarning o'z mahsulot va xizmatlarini sotish usullariga ta'sir ko'rsatdi. Natijada, aloqa texnologiyasining rivojlanishi bilan bir qatorda havflarni boshqarishga bo'lgan e'tibor ortib bordi. Ushbu maqolada mavjud terminologik tahlillarga asoslangan holda risk va risk menejmenti tushunchasiga ta'rif beriladi. Shuningdek, internet tijoratda uchrayotgan havflar hamda ularni bartaraf etishda qo'yilgan talablar yoritiladi.

Internet tijoratning rivojlanish tarixi shuni ko'rsatadiki, u iqtisodiyot uchun muhim xususiyatlarga ega bo'lgan murakkab ochiq tizimdir. Ko'p hollarda tadbirkorlar internet tijorat bilan bog'liq havflarni hisobga olmaydilar yoki bunday havflarni samarali kamaytirish choralari bilmaydilar. Shunday ekan internet tijorat bir qator afzalliklarga ega bo'lsa-da, uni targib etish jarayonida an'anaviy tijoratga xos bo'lmagan xatlarga duch kelish mumkin. Boshqaruv qarorlarining aksariyati shunday sharoitda qabul qilinadi, shu sababli Internet tijoratda risklar har tomonlama o'rganilishi kerak bo'lgan muhim masalalardan biri xisoblanadi.

"Risk" va "noaniqlik" tushunchalari oldin ham ko'plab asarlarda paydo bo'lgan bo'lsada, bu muammo faqat XIX-XX-asrlarda jiddiy o'rganila boshlandi. Risk tushunchasi noaniqlik tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, noaniqlik - bu ma'lum hodisa, uning oqibatlari va ehtimolligi haqida yetarli axborotning yo'qligi, hamda qarorni tanlash uchun bir nechta imkoniyat, variantlarning mavjudligidir. Noaniqlik sharoitida risk bir tomondan yangi usullardan foydalangan holda ijobiy natijaga erishish, yoki aksincha, kerakli ma'lumolarning yetarli emasligi sababli yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Iqtisodchi Duglas Xabbard riskni imkoniyatlar yo'qotishlar, ofatlar yoki boshqa istalmagan natijalarni o'z ichiga olgan noaniqlik holati deya ta'rif bergan. V. Kulishevning



“Loyihalar risklarini boshqarish” kitobida Risk bu strategik maqsadlarga erishishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan havflar deb ta'riflangan. ¹

Tadbirkorlik riski klassik nazariyasining vakillari J.Mill va N.V.Senior risk bu moliyaviy yo'qotish bo'lib uni matematik usullar orqali oldindan prognoz qilish mumkin degan fikr bildirganlar. Keyinchalik J.M.Keyns tomonidan “Bandlik, pul va foizlarning umumiy nazariyasi” (1937) kitobida risk turlari ko'rib chiqilgan va “risk harajatlari” tushunchasi kiritilgan.

30-yillarning iqtisodchilari A.Marshall va A.Pigu tadbirkorlik risklarining neoklassik nazariyasini ishlab chiqdilar. Olimlarning fikricha, tadbirkorlik faoliyati noaniqlik sharoitida ishlaydi va foyda tasodifiy, o'zgaruvchan qiymatdir. Shu sababli tadbirkorni nafaqat foyda miqdori, balki riskning ehtimolligi, riskning oshishi va kamayish tebranishlari ham qiziqtiradi. Ushbu nazariyaga ko'ra, kichik ammo kafolatlangan foyda shubhali va noaniq daromaddan yahshiroq degan fikr ilgari suriladi. ²

Internet tijorat tarixidan ma'lumki, ilk tijorat saytlari yaratilib onlayn to'lov tizimlari ishga tushirilganidan so'ng, 2000-yilda xakkerlar tomonidan Trinoo va Back office deb nomlangan troyan virus dasturlari orqali Yahoo!, Amazon.com, eBay.com, Buy.com kabi tijorat gigantlariga katta zarar yetkazildi. Xakkerlik hujumlari bir vaqtning o'zida dunyoning turli nuqtalaridan amalga oshirilgan va kompaniyalarga minglab ishonchsiz ma'lumotlar ko'rsatilgan takliflar kelib tusha boshlagan.³ Internet tijoratning rivojlanishi va inqirozi davrlaridan shuni bilish lozimki, bunday tijorat usuli iqtisodiyotga, hamda tijorat yurituvchi subyektlarga bir qancha afzalliklar yaratib berishiga qaramay, uning bir qancha muammolari ham kuzatilmoqda.

Internet keng qamrovli tarmoq bo'lganligi sababli fribgarlikni amalga oshirishga imkon beruvchi vositalar va usullarni taqdim etadi. Bu esa internet tijoratning tashqi muhiti murakkab ekanligini ko'rsatadi.


Global elektron tijorat xavfsizligining 2020 yilgi xisobotiga ko'ra, internet ijarat bilan faoliyat olib borayotgan tashkilotlarning 78% kiberxujum holati to'g'risida habar bergan.⁴ Xisobotga ko'ra internet tijorat tashkilotlari uchun eng katta risk tug'dirayotgan hatarlar axborot havfsizligi (80%), xisob ma'lumotlarini o'g'irlash bilan bog'liq fribgarliklar (68%) xisoblanadi. (1-rasm)

¹ Е.В. Кулешова Управление рисками проектов 96 2015

² ОРГАНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ НА ПРОМЫШЛЕННОМ ПРЕДИРИЯТИИ. СОКОЛОВА Наталия Вячеславовна 11-126

³ А.В. Юрасов, Электронная коммерция, Москва, Издательство дело, 2003

⁴ The Global Ecommerce Security Report 2022, Webscale, 5, <https://www.webscale.com/wp-content/uploads/2023/02/Global-Ecommerce-Security-Report-2022.pdf>



1-rasm

Internet tijoratda havfsizlik soxasida izlanish olib borgan olimlarning fikricha tashkilot qanchalik katta bo'lsa, uning uchun axborot havfsizligi muammosi shunchalik dolzarb xisoblanadi. Chunki yirik kompaniyalarda axborot aylanishini va uning chiqib ketishini nazorat qilish qiyinlashadi. Bunga misol qilib Adidas va Macy's Inc kompaniyalaridagi holatni keltirishimiz mumkin. 2018 yilda ushbu yirik tijorat saytlari mijozlarning shaxsiy akkauntlariga 3chi shaxs tomonidan kirish hodisalari natijasida, mijozlarning moliyaviy va shaxsiy ma'lumotlarining yo'qolishi kuzatilgan. Bu esa o'z o'rnida kompaniyalar obro'siga hamda mijozlar ishonchiga salbiy ta'sir qildi.⁵

Internet tijorati faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun risklarning sabablarini aniqlash, xavf-xatarli vaziyatlarni tahlil qilish va riskni boshqarish choralarini ishlab chiqish kerak. Risk menejmenti bu kabi salbiy hodisalarni oldindan ko'rish va prognozni faktlarga asoslash imkonini beruvchi vositadir.

Uzoq yillar mobaynida risk menejmenti shaxslar va kompaniyalarni baxtsiz hodisalar bilan bog'liq bo'lgan turli xil yo'qotishlardan himoya qilish maqsadida bozor sug'urtasidan foydalanish orqali namoyon bo'lgan. Keyinchalik 1980-yillarda derivativ vositalari orqali risklarni boshqarish usullari keng tarqaldi, bu o'z o'rnida tashkilotlarga moliyaviy risklarni kamaytirishga imkoniyat yaratdi. So'ngra kompaniyalar risklarni boshqarishda nafaqat sug'urta yoki qimmatli qog'ozlar balki kutilmagan risklardan himoyalash uchun risklarni boshqarishda ichki modellar va strategiyalarini ishlab chiqdilar. O'sha yildan risk menejmentining ahamiyati oshib bordi hamda risklar bilan shug'illanuvchi menejer lavozimi tashkil etildi.

⁵ Green, D., and Hanbury, M. (2018). If you shopped at these 14 stores in the last year, your data might have been stolen. Business Insider, 6. <https://www.businessinsider.com/data-breaches-2018-4>.



N.Sokolovanning fikriga ko'ra risk menejmenti bu tashkilotni istalmagan va tasodifiy vaziyatlardan iqtisodiy jihatdan samarali himoya qilishga va ularning salbiy ta'sirini minimallashtirishga qaratilgan boshqaruv faoliyatidir.⁶

V.V.Glushchenkoning fikricha barcha jarayon va hodisalar bir biriga ta'sir etuvchi tizimdir, risk menejmenti qarorlari esa o'sha tizimga ta'sir etuvchi jarayon deb xisoblagan. Shu sababli Internet tijoratda risklarni boshqarish qarorlarini qabul qilish jarayonlarida ko'p parametrlil va samarali **risk menejmenti tizimini (RMT)** yaratish talab etiladi.

RMTni ishlab chiqishda dastlab normativ va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqiladi. Internet tijoratning o'zgaruvchan muhitini xisobga olingan holda RMTga doimiy takomillashtirish va o'gartirishlar kiritish zarur. Risklarni boshqarish tizimini shakllantirishda tashkilotning boshqaruv tizimiga asoslangan holda bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqiladi:

- Riskni boshqaruv siyosati. Kompaniya dolzarb deb xisoblagan risklar doirasini belgilaydi.
- Risklarni boshqarish me'yorlari. Shu jumladan bosqichlarning batafsil tavsifi, vakolat va majburiyatlarning taqsimlanishi, jarayonning alohida bosqichlarini o'tkazish muddatlari aniqlash;
- Risklarni boshqarish metodologiyasi. Tashkilot risklarining asosiy guruhining baholash usullari, xavflarning ustuvorligi va kompaniya rahbariyati tomonidan belgilanadigan tavakkalchilik darajasini hisobga olish.

Kerakli ma'lumotlar to'panganidan so'ng tashkilot rahbariyati tomonidan RMT ni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash uchun mas'ul tarkibiy bo'linma tayinlanadi. Keyinchalik, ushbu bo'linma tashkilot duch keladigan riskning asosiy sohalarini ko'rib chiqadi. Shuningdek bo'linma har bir soxa mutaxassislari yordamida xavflarni aniqlash va tasniflashni amalga oshiradi. Bu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- ✓ Internet tijorat bozorining turli sohalaridagi vaziyatni kuzatish va tahlil qilish;
- ✓ Internet tijorat bozoridagi mavjud vaziyat bilan bog'liq ma'lumotlarni jamlash va umumlashtirish;
- ✓ Vaziyat tafsilotlarini ko'rsatish, baholash va tahlil qilish;
- ✓ Salbiy ta'sir ehtimolligi mavjud bo'lgan hodisalarni aniqlash.

So'ngra, aniqlangan xavflar baholanadi va tartiblanadi. Risk menejmentini amalga oshirishning dastlabki bosqichida zarur statistik ma'lumotlarning yo'qligi sababli risklar ekspert usuli yordamida baholanadi. Ushbu jarayonda muntazam ravishda to'planishi va saqlanishi kerak bo'lgan ma'lumotlarning ro'yxati aniqlanadi va keyinchalik kerakli ma'lumotlarni to'plash statistik baholash usullaridan foydalanish, risk matritsasini ishlab chiqishni avtomatlashtirish uchun texnik shartlar ishlab chiqariladi. Har bir aniqlangan riskning tashkilotga ta'sir qilish ehtimolini baholash natijalari risklar reestrda qayd etiladi.

Risklar reestri - loyiha doirasidagi mumkin bo'lgan to'siqlarni aniqlash uchun xavflarni boshqarish vositasi sifatida foydalaniladigan hujjat xisoblanadi.⁷ Hozirgi kunda risklar reestri

⁶ Соколова Наталия Вячеславовна ОРГАНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ НА ПРОМЫШЛЕННОМ ПРЕДПРИЯТИИ. 75b

⁷ Костина Ю.А. Особенности формирования системы риск-менеджмента в инфраструктурных компаниях // Финансы и кредит. № 4. 2010. 65-68



platforma ko'rinishda ishlatilmoqda. Bunday platforma RMT subyektlari uchun xavflarni to'plash, xujjatlashirish va nazorat qilishda yordam beradi.

Aniqlangan va baholangan risklar to'g'risidagi ma'lumotlar manfaatdor tomonlarga - ichki (kompaniya rahbariyati) va tashqi (aksiyadorlar va tartibga soluvchilar) subyektlarga muntazam hisobot berish orqali taqdim etiladi.

Keyingi bosqich - axborot va aloqa bosqichi, risklarni boshqarish tizimi va korxonaning boshqa boshqaruv tizimlari o'rtasidagi asosiy bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonda RMTni shakllantirish bo'yicha mas'ul bo'linma tomonidan boshqaruv tizimiga boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun risklar to'g'risida ma'lumot beriladi. Xatarlarni boshqarish tizimining samaradorligi ko'p jihatdan aloqa jarayoni qanday tashkil etilganiga va risklar to'g'risidagi ma'lumotlarning o'z vaqtida va kerakli hajmda taqdim etilishiga bog'liqdir.

Olingan ma'lumotlarga asoslanib, rahbariyat risklarni boshqarishdagi yondashuvlar bo'yicha qarorlar qabul qiladi, risk menejmenti yondashuvlari havfning ta'siri darajasiga qarab quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Riskni kamaytirish;
- Riskdan qochish;
- Qabul qilish.

Risk menejmentida qo'llanilgan vositalar va choralar risklar reestrada va tegishli hujjatlarda qayd etiladi, hamda ularning bajarilishi nazorat qilinadi. Jarayon davomida qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish natijalar baholanadi, agar natijalar qoniqarli bo'lmasa, yuqorida keltirilgan operatsion jarayon takroriy qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, risk menejmenti tizimini shakllantirish risk menejmenti obyektlarini, subyektlarini boshqarish jarayonlarini belgilashdan boshlanadi. Keyin zaruriy me'yoriy hujjatlar bazasini ko'rib chiqish uchun texnik shartlar shakllantiriladi. Ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar va axborot tizimi aprobatsiya bosqichida sinovdan o'tkazilgandan so'ng tizim tijoratda foydalanishga topshiriladi.

References:

1. Журнал "Теория управления" Бармашов Константин Сергеевич, Ландау Юрий Владимирович Управление взаимоотношениями с партнерами 2018, 110-111
2. Журнал "Цифровая перспектива" Галина Головенчик, СУЩНОСТЬ, КЛАССИФИКАЦИЯ И ОСОБЕННОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ 2020, 45
3. Bischof, S. F., T. M. Boettger, and T. Rudolph. 2020. "Curated Subscription Commerce: A Theoretical Conceptualization." Journal of Retailing and Consumer Services
4. А.В. Юрасов, Электронная коммерция, Москва, издательство «Дело», 2003, 156
5. Green, D., and Hanbury, M. (2018). If you shopped at these 14 stores in the last year, your data might have been stolen. Business Insider, 6. <https://www.businessinsider.com/data-breaches-2018-4>.
6. Соколова Наталия Вячеславовна ОРГАНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ НА ПРОМЫШЛЕННОМ ПРЕДПРИЯТИИ. 75b
7. Костина Ю.А. Особенности формирования системы риск-менеджмента в инфраструктурных компаниях // Финансы и кредит. № 4. 2010. 65-68



8. The Global Ecommerce Security Report 2022, Webscale, 5,
<https://www.webscale.com/wp-content/uploads/2023/02/Global-Ecommerce-Security-Report-2022.pdf>